“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=377

2026-yil
7-son
iyul
ISSN 3093-8546



Raqobat huquqida zarur infratuzilmadan foydalanishni ta’minlash doktrinasi ustun mavqeni suiiste’mol qilishning alohida ko‘rinishi sifatidagi tasnifi va O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish masalalari

Humoyunmirzo Eshboyev,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Akademik sifatni ta’minlash va standartlashtirish ofisi bosh mutaxassisi
e-mail: kh.eshboyev@uwed.uz

Аннотация. Maqolada raqobat huquqidagi essential facilities doctrine, ya’ni raqobat uchun zarur bo‘lgan noyob infratuzilma, tarmoq, ma’lumotlar bazasi yoki texnologik resursdan foydalanishni asossiz rad etish orqali ustun mavqeni suiiste’mol qilish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqot AQSh va Yevropa ittifoqi amaliyotidagi yondashuvlarniO‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni va 2024-yilda qabul qilingan monopoliyaga qarshi tartibga solish hujjatlari bilan qiyoslaydi. Maqola doktrina cheksiz majburiy kirish rejimi emas, balki istisno hollarda qo‘llanadigan, innovatsiya, mulk huquqi va raqobat erkinligio‘rtasidagi muvozanatni talab qiladigan huquqiy test ekanini asoslaydi. XulosadaO‘zbekiston uchun zarur obyektga kirish bo‘yicha alohida huquqiy mezonlar, FRAND shartlari va raqamli platformalar uchun maxsus baholash algoritmini joriy etish taklif qilinadi.

Калит сўзлар. raqobat huquqi, ustun mavqe, essential facilities doctrine, asossiz rad etish, raqamli platformalar, Bronner testi

Аннотация. В статье анализируетсядоктрина необходимых объектовв конкурентном праве, рассматривающая необоснованный отказ в предоставлении доступа к уникальной инфраструктуре, сети, базе данных или технологическому ресурсу, необходимым для осуществления эффективной конкуренции, как одну из форм злоупотребления доминирующим положением. Исследование сопоставляет подходы, сформировавшиеся в практике Соединённых Штатов Америки и Европейского союза, с положениями новой редакции Закона Республики Узбекистан «О конкуренции» и подзаконных актов в сфере антимонопольного регулирования, принятых в 2024 году. В статье обосновывается, что доктринадоктрина необходимых объектовне предполагает установления неограниченного режима обязательного доступа, а представляет собой исключительный правовой механизм, применяемый лишь при наличии строго определённых условий и требующий соблюдения баланса между защитой конкуренции, правом собственности и стимулированием инноваций. В заключение предлагается внедрить в законодательство Республики Узбекистан специальные правовые критерии оценки отказа в доступе к необходимой

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

инфраструктуре, предусмотреть применение условийFRAND, а также разработать отдельный алгоритм оценки подобных случаев в отношении цифровых платформ.

Ключевые слова. конкурентное право, доминирующее положение, доктрина essential facilities, необоснованный отказ в доступе, цифровые платформы, тест Bronner

Annotation. This article analyses the essential facilities doctrine as a specific form of abuse of dominance where a dominant undertaking unjustifiably refuses access to an indispensable infrastructure, network, database or technological input required for effective competition. It compares the approaches developed in the United States and the European Union with Uzbekistan’s revised Law on Competition and the 2024 secondary legislation on antimonopoly regulation. The article argues that the doctrine should not operate as a general compulsory-access regime; rather, it must be applied exceptionally through a strict legal test balancing competition, property rights and innovation incentives. The article proposes a tailored Uzbek model based on indispensability, objective justification, competitive foreclosure, feasibility of access and FRAND-based remedies.

Keywords. competition law, abuse of dominance, essential facilities doctrine, refusal to deal, digital platforms, Bronner test

Kirish.

Raqobat huquqining klassik vazifasi bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi erkin va adolatli raqobatni himoya qilishdan iborat. Biroq zamonaviy iqtisodiyotda raqobat faqat narx yoki ishlab chiqarish hajmi bilan belgilanmaydi. Ayrim bozorlar infratuzilma, transport tarmog‘i, elektr uzatish liniyasi, telekommunikatsiya tizimi, dasturiy interfeys, platforma ekotizimi yoki katta hajmdagi ma’lumotlar bazasiga kirish imkoniyatisiz amalda mavjud bo‘la olmaydi. Shunday sharoitda muayyan resursni nazorat qiluvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt nafaqat o‘z bozorida, balki unga bog‘liq qo‘shni bozorlarda ham raqobat shartlarini belgilash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bunda “Essential facilities doctrine” ya’ni, “zarur infratuzilmadan foydalanishni ta’minlash doktrinrasi” aynan shu holatga javob beradi. Uning mohiyati shundan iboratki, agar ustun mavqega ega subyekt raqobatchilar uchun obyektiv ravishda zarur bo‘lgan resursni nazorat qilsa va ushbu resursga kirishni asossiz rad etsa, bunday rad etish ayrim hollarda ustun mavqeni suiiste’mol qilish deb baholanishi mumkin. Biroq doktrina juda ehtiyotkor qo‘llanishi kerak, chunki har qanday majburiy kirish mulk huquqi, investitsiya rag‘bati va innovatsion faoliyatga ta’sir qiladi. Shu sababli, yetakchi yurisdiksiyalar doktrinani odatiy qoida sifatida emas, balki istisno sifatida shakllantirgan[1:357-376].

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

O‘zbekistonning yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni ustun mavqe, ustun muzokara kuchi, shartnoma tuzishni asossiz rad etish, bozorga kirish uchun to‘siqlar yaratish hamda raqamli platformalarda ma’lumotlar va texnologiyalardan foydalanishni raqobatni cheklash vositasiga aylantirishni taqiqlovchi qoidalarni ichiga oladi. Shu jihatdan milliy huquqda yuqoridagi doktrina alohida institut bevosita mustahkamlanmagan bo‘lsa-da, uning funksional elementlari mavjud. Maqolaning asosiy savoli shundan iboratki, O‘zbekiston raqobat huquqida zarur obyektga kirishni majburiy ta’minlash qachon asosli bo‘lishi mumkin va bunday aralashuv qanday huquqiy norma orqali chegaralanishi lozim? [2]

2. Doktrinaning nazariy mazmuni va chegaralari.

Mazkur doktrina raqobat huquqidagi ya’ni bitim tuzish yoki resurs taqdim etishni rad etish nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq. Bunda tadbirkor mulki, texnologiyasi yoki infratuzilmasidan foydalanish shartlarini mustaqil belgilaydi. Bozor iqtisodiyotida shartnoma tuzish erkinligi va mulkiy huquqlarni daxlsizligi raqobat huquqi nuqtai nazaridan ham muhimdir. Aks holda, ushbu huquqiy kafolatlarsiz raqobat organlari har bir muvaffaqiyatli kompaniyani o‘z raqobatchilariga yordam berishga majbur qilishi mumkin. Ba’zi olimlar fikricha, “zarur infratuzilma” iborasi o‘zi bilan birga aniq cheklovchi prinsiplarni talab qiladi, aks holda u har qanday qimmatli aktivga majburiy kirish talabi sifatida noto‘g‘ri talqin qilinishi ehtimoli bor [3].

Shu bilan birga, ayrim resurslar oddiy xususiy aktiv emas, balki bozorga kirish uchun real imkoniyat bo‘lishi mumkin. Masalan, yagona temiryo‘l terminali, shahar elektr tarmog‘i, milliy miqyosdagi gaz quvuri, aeroport slotlari, to‘lov tizimi, operatsion tizim interfeysi yoki platforma ma’lumotlariga kirish raqobatchi uchun almashtirib bo‘lmaydigan nuqta bo‘lishi ehtimoli mavjud. Yevropaning nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti materiallarida ham zarur infratuzilma konsepsiyasi raqobatga kirish uchun muhim bo‘lgan va egasi tomonidan rad etilishi bozorni yopib qo‘yishi mumkin bo‘lgan resurslar bilan bog‘lanadi [4].

Uni aniqlash uchun maqbul test kamida besh shartni qamrab olishi lozim. Birinchidan, resurs ustidan nazorat qiluvchi subyekt tegishli bozorda ustun mavqega ega bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, resurs raqobatchi faoliyati uchun qulay yoki foydali emas, balki obyektiv zarur bo‘lishi kerak. Ya’ni iqtisodiy, texnik yoki huquqiy jihatdan real muqobil mavjud bo‘lmasligi lozim. Uchinchidan, rad etish quyi yoki qo‘shni bozorda samarali raqobatni yo‘qotishi yoki jiddiy cheklashi kerak. To‘rtinchidan, rad etishning obyektiv asoslari – quvvat yetishmasligi, xavfsizlik, sifat nazorati, tijorat siri, IP huquqi yoki investitsiyani himoya qilish kabi sabablar - mavjud bo‘lmasligi kerak. Beshinchidan, kirish majburiyati texnik va iqtisodiy jihatdan bajarilishi, uning shartlari esa adolatli, oqilona va kamsitmaslikka asoslangan bo‘lishi lozim [5].

Shuning uchun doktrina raqobatchini himoya qilish vositasi emas, balki raqobat jarayonini himoya qilish vositasidir. Dominant

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

kompaniyaning har qanday rad etishi huquqbuzarlik emas. Huquqbuzarlik faqat rad etish raqobatni bozor mexanizmlari orqali emas, balki zarur inputni yopib qo‘yish orqali cheklaganda yuzaga keladi. Bu farq O‘zbekiston uchun ham muhim: majburiy kirish faqat bozorda raqobatning saqlanishi uchun zarur bo‘lgan hollarda, aniq mezonlar asosida va vaqt jihatidan proporsional tarzda qo‘llanishi kerak.

3. AQSh amaliyotidan amaliy misollar

AQSh raqobat huquqida ushbu doktrinaning ildizlari Terminal Railroad ishiga borib taqaladi. Unda St. Louis hududidagi asosiy temiryo‘l terminal infratuzilmasini nazorat qilgan birlashma boshqa temiryo‘l kompaniyalarining undan teng shartlarda foydalanishiga to‘siq qo‘ygan. AQSh Oliy sudi bunday holatda terminaldan teng shartlarda foydalanish imkoniyatini ta’minlash orqali raqobatni tiklash mumkinligini ko‘rsatgan. Bu ish doktrinaning klassik infratuzilma modelini yaratib, obyekt noyob, muqobil qurish amalda mumkin emas va uni nazorat qilish raqobatchilarni bozordan chiqarishi mumkin [6:383]. Xuddi shunga o‘xshash boshqa bir ishda esa elektr uzatish liniyalariga kirishni rad etish monopoliyalashtirish vositasi sifatida baholangan bo‘lib, bunda kompaniya mahalliy elektr tizimlari shakllanishining oldini olish uchun ularga ulgurji elektr energiyasini sotishdan va o‘z liniyalari orqali energiya o‘tkazishdan bosh tortgan. Sud bu rad etishlar kompaniyaning monopol mavqeini saqlab qolishga qaratilganini e’tiborga olgan holda qaror chiqargan [7]. AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zarur infratuzilma doktrinasi iqtisodiy samaradorlik bilan ehtiyotkor muvozanatda bo‘lishi kerak. Xususiy kompaniyalar faoliyatiga haddan tashqari aralashuv investitsiya rag‘batini pasaytiradi, chunki tadbirkorlar yaratgan aktivlaridan kelajakda raqobatchilar ham majburan foydalanishini oldindan bilsa, katta investitsiya qilishga kamroq qiziqadi. Shu sababli, AQSh modeli O‘zbekiston uchun ogohlantiruvchi ahamiyatga ega bo‘lib, doktrina zarur, ammo u aniq shartlar va kuchli isbot standarti bilan cheklanishi lozim. Muallifning AQSh va O‘zbekiston antimonopol tizimlari bo‘yicha oldingi qiyosiy tahlilida ham AQSh modeli ko‘proq sud amaliyoti, iqtisodiy dalillash va ex post himoya vositalariga tayansa, O‘zbekiston modeli preventiv-ma’muriy aralashuv va strukturaviy aniqlikka yaqin ekani qayd etilgan [8].

4. Yevropa ittifoqi amaliyotidan amaliy misollar

Ana endi biz uchun huquqiy jihatdan bir muncha yaqin bo‘lgan Yevropa ittifoqida yuzaga kelgan ba’zi amaliy misollarga to‘xtalib o‘tsak. Yevropa ittifoqida zarur infratuzilmadan foydalanishni ta’minlash doktrinasi “Yevropa ittifoqi faoliyati to‘g‘risida”gi qonun 102-moddasi doirasida ustun mavqeni suiiste’mol qilishning bir ko‘rinishi sifatida baholanadi. Dastlabki, “Commercial Solvents” ishida xomashyo yetkazib berishni to‘xtatish quyi bozorda raqobatchini siqib chiqarishga xizmat qilgani sababli huquqbuzarlik sifatida klassifikatsiyalangan. United Brands ishida esa ustun mavqedagi subyektning ta’minotni to‘xtatish orqali

dilerga bosim o‘tkazishi raqobat huquqi nuqtayi nazaridan muhim bo‘lgan [9]. Biroq Yevropa ittifoqidagi ushbu doktrina bo‘yicha huquqiy yondashuvning markaziy mezonlarini belgilagan keys bu Bronner ishidir. Yevropa ittifoqi Sudiga ko‘ra, ustun mavqega ega korxonaning infratuzilmaga kirishni rad etishi faqat qat’iy shartlar bajarilganda suiiste’mol bo‘lishi mumkin. Ushbu shartlar sirasiga raqobatni yo‘qolish ehtimoli mavjudligi, obyektiv asoslanmagan bo‘lishi va so‘ralgan resurs raqobatchi faoliyati uchun almashtirib bo‘lmaydigan darajada zarur bo‘lishi kabilar kiritilgan. Microsoft ishida Yevropa komissiyasi va keyinchalik Sud Microsoftning serverlar o‘rtasidagi o‘zaro ishlash uchun zarur interoperabilitet ma’lumotlarini bermasligini raqobatga qarshi rad etish deb baholadi. Bu ish klassik infratuzilma doktrinasi endi faqat temiryo‘l yoki elektr tarmog‘i bilan cheklanmasligini, balki dasturiy interfeys, texnologik standart va axborotga ham tatbiq qilinishi mumkinligini ko‘rsatdi. Shunga qaramay, YI yondashuvi ham Bronner mezonlarini to‘liq bekor qilmaydi; aksincha, raqamli bozorlarda ham resursning haqiqatdan zarurligi, rad etishning raqobatga ta’siri va obyektiv asoslar alohida tekshirilishi kerak [10]. Keyingi Slovak Telekom va Lithuanian Railways ishlari yuqoridagi muammoga muhim aniqlik kiritdi. Sudlar har bir access case avtomatik ravishda Bronner testi bilan hal qilinmasligini, ayniqsa dominant subyekt mavjud infratuzilmani faol ravishda buzsa, kamsituvchi shartlar qo‘llasa yoki oldindan mavjud regulyator majburiyatlarini buzsa, raqobatga qarshi xatti-harakat boshqa nazariyalar orqali ham baholanishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu O‘zbekiston uchun muhim xulosa beradi: essential facilities doctrine alohida test bo‘lsa-da, bozorga kirish to‘siqlari, kamsitish, tying, eksklyuzivlik va platforma ma’lumotlariga kirishni cheklash kabi boshqa suiiste’mol shakllaridan ajratib tahlil qilinishi kerak [11].

5. O‘zbekiston qonunchiligi tahlili

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunida ustun mavqe shunday holat sifatida belgilanganki, u xo‘jalik yurituvchi subyektga raqobatchilarga bog‘liq bo‘lmagan holda faoliyat yuritish, raqobat holatiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatish, bozorga boshqa subyektlarning kirishini qiyinlashtirish yoki ularning iqtisodiy erkinligini cheklash imkonini beradi. Qonunda 40 foiz va undan ortiq bozor ulushi, raqobatchilarning mavjud emasligi, tabiiy monopoliya maqomi yoki mutlaq va eksklyuziv huquqlar kabi mezonlar ustun mavqeni e’tirof etish uchun ahamiyatli bo‘lishi belgilangan. Bu ta’rif zarur obyektlar doktrinasining birinchi sharti - dominant nazoratni aniqlash - uchun yetarli normativ asos yaratadi [12].

Qonunning 18-moddasi esa zarur infratuzilma bilan ta’minlash doktrinasi bilan eng yaqin bog‘liq normalarni o‘z ichiga oladi. Unda shartnoma tuzishni asossiz ravishda rad etish, tovar yoki moliya bozoriga boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kirishi uchun to‘siqlar yaratish, kamsituvchi shart-sharoitlarni belgilash, boshqa subyektlardan olish yoki ularga realizatsiya qilishni cheklash kabi

harakatlar ustun mavqeni suiiste’mol qilish sifatida taqiqlangan. Ayniqsa, tegishli tovarni ishlab chiqarish yoki realizatsiya qilish imkoniyati bo‘la turib shartnoma tuzishni asossiz rad etish qoidasi zarur obyektga kirishni rad etish holatlarini qamrab olishi mumkin [13].

Yangi qonunchilikning alohida afzalligi raqamli platformalar bo‘yicha maxsus normaning mavjudligidir. Qonunda ustun mavqega ega raqamli platforma operatoriga ma’lumotlar, texnologiyalar va raqamli mahsulotlardan foydalanish haqidagi talablarni belgilash orqali raqobatni cheklaydigan harakatlarni bajarish taqiqlanadi. Bu norma O‘zbekiston huquqini zamonaviy platforma iqtisodiyoti bilan bog‘laydi. B. Xodjayev, X. Rajabov va hammualliflarning 2025-yilgi darsligida ham Google Shopping, Qualcomm, Microsoft Internet Explorer, Google Android kabi xalqaro ishlar raqamli bozorlarda ustun mavqe, kirish to‘siqlari, eksklyuzivlik va algoritmik cheklovlar an’anaviy bozorlarga nisbatan murakkabroq ko‘rinish olishini ko‘rsatish uchun keltirilgan [14].

Shu bilan birga, O‘zbekiston huquqida ushbu doktrina nomi bilan huquqiy normalar hozircha mavjud emas. Amaldagi norma “asossiz rad etish” va “bozorga kirish to‘siqlari” tushunchalarini beradi, lekin qaysi resurs zarur obyekt hisoblanishi, rad etish qachon obyektiv asoslangan bo‘lishi, access remedy qanday shartlarda berilishi, intellektual mulk yoki tijorat siri bo‘lgan holatda qanday balans qo‘llanishi ochiq qoladi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori monopoliyaga qarshi tartibga solish bo‘yicha muhim protsessual va metodik hujjatlarni tasdiqlagan bo‘lsa-da, zarur obyektga kirish bo‘yicha alohida sinov mezonlarini to‘liq shakllantirmaydi [15].

6. Milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun takliflar

AQSh va Yevropa ittifoqi tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun eng maqbul model haddan tashqari liberal majburiy kirish emas, balki Bronnerga yaqin, ammo milliy qonunchilikdagi 18-modda bilan uyg‘unlashtirilgan qat’iy test bo‘lishi kerak. Bunday test ustun mavqega ega subyektni har qanday foydali aktivini bo‘lishishga majbur qilmaydi. U faqat raqobat jarayonining saqlanishi resursga kirishsiz imkonsiz bo‘lgan holatlarda ishlaydi. Muallif fikricha, O‘zbekiston raqobat huquqi uchun quyidagi olti bosqichli test maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda tegishli bozor va qo‘shni bozor aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda subyektning ustun mavqei, shu jumladan resurs ustidan de fakto yoki “de yure” nazorati belgilanadi. Uchinchi bosqichda resursning raqobat uchun obyektiv zarurligi, muqobil manbalar mavjudligi va ularni yaratishning iqtisodiy oqilonaligi tekshiriladi. To‘rtinchi bosqichda rad etishning raqobatga ta’siri – bozorga kirish to‘sig‘i, quyi bozorda raqobatni chiqarib tashlash, iste’molchi tanlovining kamayishi yoki innovatsiyaning susayishi baholanadi. Beshinchi bosqichda obyektiv asoslar tahlil qilinadi. Oltinchi bosqichda majburiy kirish, kamsitmaslik majburiyati, texnik interoperabilitet, shaffof tarif, vaqtinchalik access yoki xulq-atvor majburiyatlari kabi choralardan

biri tanlanadi. Bunday testni qonun darajasida emas, avvalo Vazirlar Mahkamasi qarori yoki Raqobat qo‘mitasining metodik tavsiyasi darajasida joriy etish maqsadga muvofiq. Chunki doktrina murakkab iqtisodiy baholashni talab qiladi va har bir tarmoqda bir xil ishlamasligi mumkin. Energetika, temiryo‘l, telekommunikatsiya, to‘lov infratuzilmasi va raqamli platformalar uchun access masalasi boshqa-boshqa iqtisodiy xususiyatlarga ega. Shuning uchun umumiy qonunda prinsip belgilanishi, metodik hujjatda esa batafsil test va dalillar standarti ishlab chiqilishi kerak.

Normativ taklif sifatida 18-moddaga yoki unga oid metodik hujjatga quyidagi mazmundagi qoida kiritilishi mumkin:

“Ustun mavqega ega xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan raqobatchilar uchun tegishli yoki qo‘shni bozorda samarali faoliyat yuritish uchun obyektiv ravishda zarur bo‘lgan infratuzilma, tarmoq, ma’lumotlar, texnologik interfeys yoki boshqa resursdan foydalanishni asossiz rad etish, agar bunday rad etish raqobatni cheklashga yoki bozorga kirishni imkonsiz yoxud asossiz darajada qiyinlashtirishga olib kelsa va obyektiv texnik, iqtisodiy yoki huquqiy asoslar bilan oqlanmasa, ustun mavqeni suiiste’mol qilish deb baholanadi. Bunday hollarda kirish shartlari adolatli, oqilona va kamsitmaslikka asoslangan bo‘lishi lozim”.

Shaxsiy fikrimcha, raqamli bozorlar uchun qo‘shimcha ehtiyotkorlik zarur. Ma’lumotlar bazasi yoki algoritmik interfeys har doim ham zarur obyekt emas. Raqobatchi boshqa ma’lumotlar manbasi, foydalanuvchi bazasi yoki texnologik yechim orqali raqobat qilishi mumkin bo‘lsa, majburiy kirish talab qilinmasligi kerak. Aksincha, platforma ekotizimi bozorga kirishning yagona real kanali bo‘lsa, accessni rad etish mustaqil bizneslarni bozordan chiqarayotgan bo‘lsa va platforma rad etishni xavfsizlik yoki maxfiylik bilan asoslay olmasa, raqobat organi aralashuvi asosli bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining raqamli bozorlarga oid tahlillari ham Ustun mavqeni nazorat qilish amaliyotida xato xavfi yuqori ekanini, shuning uchun dalillar, effektlar va remedy muvozanati puxta baholanishi zarurligini ko‘rsatadi[16]. Muallifning O‘zbekistonda raqamli platformalarni tartibga solish bo‘yicha tadqiqotida ham O‘RQ-850 raqamli platforma, tarmoq effektlari va ustun muzokara kuchi tushunchalarini kiritgani, biroq ex ante majburiyatlar va data portability mexanizmlari hali yetarli darajada operatsionlashtirilmagani ko‘rsatilgan [17].

7. Xulosa

Ushbu doktrina raqobat huquqining eng nozik institutlaridan biridir. U bir tomondan monopol nazorat ostidagi zarur resurslar orqali raqobatni yopib qo‘yishning oldini oladi. Ikkinchi tomondan, haddan tashqari keng qo‘llansa, mulk huquqi, shartnoma erkinligi va investitsiya rag‘batiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli doktrina faqat istisno hollarda va qat’iy mezonlar asosida ishlashi kerak.

AQSh tajribasi majburiy kirishning xavflarini va antitrust huquqining tarmoq regulyatsiyasi o‘rnini to‘liq egallamasligi kerakligini ko‘rsatadi. Yevropa ittifoqi tajribasi esa Bronner, IMS Health va Microsoft orqali zarurlik, raqobatni chiqarib tashlash, obyektiv asos va innovatsiya o‘rtasidagi huquqiy muvozanatni ishlab chiqqan. O‘zbekistonning O‘RQ-850-son qonuni essential facilities doctrine uchun zarur boshlang‘ich elementlarni ‘ ustun mavqe, asossiz rad etish, bozorga kirish to‘siqlari va raqamli platformalarda ma’lumotlar hamda texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha cheklovlarni ichiga oladi. Biroq ushbu elementlarni birlashtiruvchi maxsus test hozircha aniq shakllanmagan.

Maqolada taklif etilgan model O‘zbekiston sharoitida uchta maqsadga xizmat qiladi: birinchidan, dominant subyektlarning zarur inputni yopib qo‘yish orqali raqobatni cheklashini oldini oladi; ikkinchidan, tadbirkorlarning mulk va investitsiya huquqlarini asossiz cheklashdan saqlaydi; uchinchidan, raqamli platformalar, infratuzilma tarmoqlari va tabiiy monopoliya bilan bog‘liq bozorlarda oldindan tushunarli huquqiy mezonlar yaratadi. Shunday qilib, essential facilities doctrine O‘zbekiston raqobat huquqida bevosita ko‘chirib olinadigan xorijiy institut emas, balki milliy qonunchilikdagi mavjud normalarni aniqlashtirish, iqtisodiy tahlil bilan boyitish va remedies tizimini takomillashtirish uchun metodologik asos bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xodjayev B.K., Rajabov X.M., Qalandarov A.O., Abduazizov D.B., Raqobat huquqi: darslik (Toshkent, 2025), 357-376-betlar; OECD, The Essential Facilities Concept (OECD Competition Committee, 1996).

2. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni, O‘RQ-850-son, 03.07.2023, 13- va 18-moddalar, https://lex.uz/docs/-6518381 (murojaat qilingan sana: 07.07.2026).

3. Phillip Areeda, “Essential Facilities: An Epithet in Need of Limiting Principles”, 58 Antitrust Law Journal 841 (1990).

4. OECD, The Essential Facilities Concept, OECD Competition Committee (1996).

5. Oscar Bronner GmbH & Co. KG v Mediaprint Zeitungs- und Zeitschriftenverlag GmbH & Co. KG, Case C-7/97, Judgment of the Court of Justice of the European Union, 26 November 1998, ECLI:EU:C:1998:569

6. United States v. Terminal Railroad Association of St. Louis, 224 U.S. 383 (1912).

7. Otter Tail Power Co. v. United States, 410 U.S. 366 (1973).

8. Khumoyunmirzo Eshboev, “Comparative Analysis of the U.S. Antitrust System and the Uzbek Antimonopoly Regime: Institutions, Standards, Procedures, Remedies, and Corporate Governance”, Лучшие интеллектуальные исследования, Часть-58, Том-2 (December 2025), 203-227.

9. Case 27/76, United Brands Company and United Brands Continentaal BV v Commission, ECLI:EU:C:1978:22.

10. Case T-201/04, Microsoft Corp. v Commission, ECLI:EU:T:2007:289; European Commission, Case AT.37792 Microsoft.

11. Case C-165/19 P, Slovak Telekom a.s. v Commission, ECLI:EU:C:2021:239; Case C-42/21 P, Lietuvos geležinkeliai AB v Commission, ECLI:EU:C:2023:12

12. O‘RQ-850-son “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun, 13-modda.

13. O‘RQ-850-son “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun, 18-modda, xususan shartnoma tuzishni asossiz rad etish va bozorga kirish uchun to'siqlar yaratish haqidagi qoidalar.

14. O‘RQ-850-son “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun, 18-moddaning raqamli platformalar operatoriga oid qoidasi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-maydagi 256-son qarori “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”, https://lex.uz/docs/-6907023 (murojaat qilingan sana: 07.07.2026).

16. OECD, Abuse of Dominance in Digital Markets (OECD Competition Committee, 2020); OECD, Refusals to Deal, DAF/COMP(2007)46 (2009).

17. Xumoyunmirzo Eshboev, “Digital platform regulation in Uzbekistan: challenges and prospects”, Adolat markazi electronic journal, 6-son (June 2026), 41-49.